

TOSHKENT SHAHRINI EKOLOGIK IFLOSLANISHINING INSONGA TA'SIRI**Toshmurodova Muhayyo Sharif qizi****“TIQXMMI” MTuning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14185959>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent shahrining ekologik ifloslanishi va uning kelib chiqishiga sabab bo'layotgan omillar tahlil qilingan. Atrof- muhit bilan bog'liq muammolarini, bartaraf etish bo'yicha ma'lumot tavsiyalar berilgan. Toshkent havosida PM_{2,5} dispers mayda zarralarining konsentratsiyasi darajasi keskin oshganligini ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: Muammo, Toshkent, omil, ifloslanish, gazlar, atmosfera, kasallik, tabiat, iqlim, resurs.

KIRISH. So'ngi yillarda dunyoda iqlim o'zgarishlari sezilarli darajada yomonlashganini ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi yurtimiz shaharlari ichida Toshkent shahrining atmosfera havosi ifloslanib borayotgani undagi antirapagen ta'sirlar bilan bog'liq bo'lib, ular insoning iqtisodiy va madaniy manfaatlarini ruyobga chiqarish uchun, tabiiy muhitni o'zgarishiga olib kelmoqda.

Dunyoda global iqlim o'zgarishi, cho'llanish jarayonlarining ko'chayishi natijasida tabiiy changlar konsentratsiyasi ko'rsatkichlarining oshishi hamda ishlab chiqarish korxonalari, avtomobillar sanoati va sonining ko'payishi atmosferaga chiqarilayotgan tashlamalar miqdorining sezilarli ortishiga sabab bo'lmoqda. Bu Respublikada, ayniqsa, Toshkent shahrida havoning ifloslanish darajasi oshishiga ta'sir qilmoqda. Bundan tashqari, shaharlardagi atmosfera qatlamlarining past shamollatilishi, shahar transportining ko'pligi, yo'llarning tirbandligi, keng ko'lamli qurilishlar, yashil hududlarning kamligi - bularning barchasi meteorologik sharoitlar va antropogen yuklama atmosfera havosining yuqori ifloslanishiga olib kelmoqda.

Toshkent shahrida ayrim kunlarda havodagi zaharli zarralar miqdori JSST tavsiyasidan bir necha o'n marta oshyapti. Hatto gohida yog'ib o'tgan yomg'ir ham vaziyatni o'nglay olmayapti. Oqibatda Toshkent havosining ifloslanishi bo'yicha dunyo reytingida yuqori o'rinlarga chiqib ketmoqda.

Ekologiya vazirligi Toshkent shahrida atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy omillar deya sifatsiz yonilg'ida ishlaydigan avtotransport vositalaridan chiqayotgan 244 chiqindilar, issiqlik va elektr stansiyalarida ko'mir va mazutdan foydalanish, yer yuzasining global isishi havo tarkibida SO₂ ning ortib ketishi natijasida XXI asirga kelib yer yuzasining harorati 1,5-4,5 ga ortishi mumkin.

Toshkent havosida mayda PM-2,5 dispers zarralarining konsentratsiyasi 212 mkg/m³ ni tashkil etgan – bu “juda zararli” tasnifidagi ko'rsatkich bo'lib, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti belgilagan me'yordan 42,4 barobarga ko'pdir. 2023-2024 kuz-qish mavsumida O'zbekiston yan bir-necha bor top-10 talikka kirdi. 2024 yil yanvar oyi so'nggida va 1-2- fevral kunlari qor va yomg'ir yog'di. Bu albatta havoning yaxshilanishiga ijobiy ta'sir qildi. Kuchalarda qor bo'lgan 3 fevral kunida Toshkent shahri dunyoda havoning iflosligi bo'yicha 11-orinni qayd etdi.

Oxirgi 10 yilda respublikamizda avtomobillar soni qariyb millionga yetgan.

2021 yilning 1 yanvar holatiga respublikamizda jismoniy shaxslarga tegishli jami yengil avtomobillar soni 2767126 tani tashkil etib, har 1000 nafar aholiga o'rtacha 80 ta yengil avtomobil to'g'ri kelmoqda.

Atrof-muhitni ifloslantiradigan manbalarda biri avtomobil transporti hisoblanadi. Atmosferaga chiqariladiga hamma zararli moddalarning yarmidan ko'prog'i avtomobillarga to'g'ri keladi. Toshkent shahri va Respublikaning yirik shaharlarida bu ulush miqdori yanada ko'proq. Buning sabablari- transport oqimining katta sur'atlar bilan oshishi, transport vositalarining texnik holati ekologiya talablarini qondirmasligi, yo'llarning yomonligi atmosferaga chiqariladigan uglerod va azot oksidlari, uglevodorodlar va boshqa zararli moddalar miqdori ruxsat etilgan chegaraviy miqdorlardan 5-10 marta ortib bormoqda.

Hududlar kesimida jismoniy shaxslarga tegishli yengil avtomobillar soni:



Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, bu ko'rsatkich 2022 yilning 1 yanvar holati bilan solishtirilganda 94,9 mingtaga oshgan. Toshkentda havo ifloslanishiga Avtotransport harakati natijasida azot ikki oksidi miqdori 0,2-0,3 marotaba ruxsat etilgan me'yor miqdoridan ortgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, har qanday muammoning kelib chiqishida inson omili ta'siri seziladilar. Bu muammolarning qamrovi kengayib ketmasidan oldin, unga berilayotgan ta'sirni pasaytirish va barchani tabiiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga chorlashimiz kerak. Yurtboshimiz aytganlaridek sog'lom avloddan, sog'lom kelajak qoladi, biz shu shiorga amal qilishimiz joizdir.

References:

1. Nig'matov A. N. O'zbekiston Respublikasi ekologiya huquqi, -T.2004.
2. Tuxtayev. A. Ekologiya. T. 2000.
3. [„Toshkent shahri atmosfera havosi ifloslanishi yuzasidan ma'lumot“](http://www.eco.gov.uz). www.eco.gov.uz. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi
4. Egambetiev R. Ekologiya. T.1993-yil
5. www.ziyanet.Uz
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent 2000-2005
7. Egamberdiyev. R. "Ekologiya". Toshkent, uzbekiston 1994